

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar-dekabr

- **E'tibor bering: 2017 yilda**
- **Aholi soni 67,9 ming kishiga ko'paydi.**
- **Tug'ilganlar soni 89,8 ming nafarni tashkil etdi.**
- **16,7 mingta vafot etganlar qayd etildi.**
- **FHDYO bo'limlarida 38,3 mingta nikoh va 4,0 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.**

Doimiy aholi soni. Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 3719,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 67,9 ming kishiga yoki 1,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1390,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,4 %), qishloq aholisi soni 2328,7 ming kishini (62,6 %) tashkil etdi.

Viloyat aholisi hududlar kesimida tahlilli shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shaharida 529,9 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %), Urgut tumanida 481,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,9 %) tashkil etib, keyingi o'rinlarda Pstdarg'om tumanida 338,8 ming kishini (9,1 %), Kattaqo'rg'on 261,6 ming kishini (7,0 %), Samarqand tumanida 241,1 ming kishini (6,5 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 yanvar holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat

Tug'ilish. 2017 yilda tug'ilganlar soni 89,8 ming kishi tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,4 promilleni tashkil qilgan, (2016 yilda 24,4 promille bo'lgan) .

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Nurobod (24,5 dan 25,4 promillega), Kattaqo'rg'on (22,8 dan 23,6 ga), Samarqand (22,5 dan 23,2 ga), Bulung'ur (24,5 dan 25,1 ga), Jomboy (27,5 dan 28,1 ga), Ishtixon (24,9 dan 25,5 ga) va Qo'shrabot (25,9 dan 26,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Samarqand viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni

	2016 y.		2017 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Samarqand viloyat	88295	24,4	89822	24,4
Samarqand sh	9 726	18,6	9 917	18,8
Kattaqo'rg'on sh	2 130	25,0	2 066	23,9
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	3 368	22,7	3 625	24,0
Bulung'ur	4 476	25,8	4 444	25,1
Jomboy	4 182	26,6	4 524	28,1
Ishtixon	5 743	24,5	6 106	25,5
Kattaqo'rg'on	6 126	24,1	6 108	23,6
Qo'shrabot	3 299	27,1	3 302	26,6
Narpay	4 623	23,1	4 236	20,8
Payariq	3 642	29,0	6 792	28,7
Pastdarg'om	6 714	24,3	8 031	23,9
Paxtachi	8 002	25,5	3 399	24,7
Samarqand	3 447	23,3	5 550	23,2
Nurobod	5 462	26,0	3 623	25,4
Urgut	12 851	27,6	13 604	28,6
Tayloq	4 504	24,2	4 495	23,7

Demografik holat

Vafot etganlar. 2017 yilda 16,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2016 yilda 4,5 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan Oqdaryo (3,7 dan 4,3 promillega), Payariq (4,6 dan 5,0 ga), Nurobod (3,9 dan 4,2 ga), Jomboy (4,4 dan 4,7 ga), tumanlari Kattaqo'rg'on (5,3 dan 5,7 ga) va Samarqand (5,4 dan 5,6 promillega) shaharlarida kuzatildi.

Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

	2016 y.		2017 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Samarqand viloyat	16 146	4,5	16 712	4,5
Samarqand sh	2 819	5,4	2936	5,6
Kattaqo'rg'on sh	454	5,3	491	5,7
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	550	3,7	654	4,3
Bulung'ur	782	4,5	763	4,3
Jomboy	694	4,4	764	4,7
Ishtixon	931	4,0	939	3,9
Kattaqo'rg'on	996	3,9	973	3,8
Qo'shrabot	561	4,6	565	4,5
Narpay	834	4,2	857	4,2
Payariq	1076	4,6	1188	5,0
Pastdarg'om	1426	4,3	1489	4,4
Paxtachi	676	5,0	673	4,9
Samarqand	1201	5,1	1215	5,1
Nurobod	549	3,9	600	4,2
Urgut	1850	4,0	1824	3,8
Tayloq	747	4,0	781	4,1


Demografik holat

2017 yilda qayd etilgan vafot etganlarning 61,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,0 %i o'simtalardan, 6,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 64,1 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,8 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 2,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

O'lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi

(jami vafot etganlarga nisbatan %da)



2017 yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2017 yilda aholining tabiiy o'sishi 73,1 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 0,9 ming kishiga (2016 yilda 72,1 kishi bo'lgan)

Demografik holat

Nikoh. 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 38,3 ta nikoh qayd etildi. Viloyat bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,4 promilleni tashkil etmoqda.

Tuzilgan nikohlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Narpay (122,6 %), Paxtachi (121,8 %), Tayloq (121,3 %) va Qo'shrabot (118,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Samarqand viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni,

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2016 y.	2017 y.	2016 y.	2017 y.
Samarqand viloyati	34 084	38307	3311	4 007
Samarqand sh	3 873	4089	1014	1 157
Kattaqo'rg'on sh	765	841	129	150
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 468	1646	72	136
Bulung'ur	1 770	1969	151	186
Jomboy	1 692	1860	162	157
Ishtixon	2 363	2766	130	236
Kattaqo'rg'on	2 456	2717	178	234
Qo'shrabot	1 145	1361	57	80
Narpay	1 603	1966	119	151
Payariq	1 302	2878	75	180
Pastdarg'om	2 575	3656	173	280
Paxtachi	3 157	1595	233	117
Samarqand	1 309	2204	74	376
Nurobod	2 281	1525	358	78
Urgut	1 738	5119	133	318
Tayloq	4 587	2115	253	171

Nikohdan ajralishlar. 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 4,0 kishi nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Oqdaryo (188,9 %), Ishtixon (181,5 %), Paxtachi (158,1 %) va Qo'shrabot (154,7 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Migratsiya. 2017 yilda Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 15,5 kishini tashkil qildi. Migratsiya saldosi minus 5,5 ming kishiga 2016 yilga nisbatan 0,8 ming kishi ko'paygan.

Aholi migratsiyasi, kishi

	2016 yil	2017 yil
Ko'chib kelganlar	10273	10326
Ko'chib ketganlar	14696	15476
Migratsiya saldosi	-4423	-5150

Ko'chib kelganlar: Ko'chib kelganlar soni Samarqand shahri (1,9 ming kishi), Pastdarg'om (0,9 ming kishi), Kattaqo'rg'on (0,8 ming kishi) va Jomboy (0,8 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Ko'chib ketganlar: Ko'chib ketganlar soni Samarqand shahri (3,1 ming kishi), Payariq (1,2 ming kishi), Paxtachi (1,1 ming kishi) va Bulung'ur (1,1 ming kishi), Kattaqo'rg'on (1,0 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsion saldo: Migratsiya saldosing yuqori darajasi Samarqand shahri (minus 1,2 ming kishi), Kattaqo'rg'on (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.